

## INGLIZ TILI DARSIDA INTERAKTIV DOSKANING AXAMIYATI

Aynisa Sholliyeva Norbayevna

Uchquduq tuman kasb-hunar maktabi o'qituvchisi

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada maktab, litsey, institut, universitet o'qituvchilari interaktiv doska bilan tanishib, dars mobaynida unumli foydalanish yo'llari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** interaktiv doska, metod, xarita, slayd, multimedia, prezintatsiya.

Zamonaviy texnologiyani kirib kelishi bilan ingliz tilini o'qitish ananasi sezilarli darajada o'zgardi. Yangi texnologiyalardan foydalanib, o'qitishning bir qancha o'ziga xos afzalliklari mavjud. Bundan tashqari o'qitish tizimini ancha samaradorligini oshiradi va o'z navbatida til o'rganaetgan o'quvchini zamon bilan xamnafas bo'lib, olg'a intilishiga ko'maklashadi. Yangi texnologiya asta sekinlik bilan bilan ananaviy o'qitishning o'rnini egallamokda. O'qituvchi o'z kasbini sevsa, o'z ustida ishlasa yangi texnologiyalardan baxobar bo'lsa, to'g'ri foydalanib va o'rinli qo'llay olsa, o'qituvchilarni darsga qiziktira oladi va o'qituvchini bilimi ortib borishida katta xissa qo'shgan bo'ladi.

Zamonaviy interaktiv doskani talim olishdagi axamiyatini ko'rib chiqsak. Bu doska barmoq orkali boshqarilib, bo'r xam kerak emas. Turli talabalar, o'qituvchilar yeki foydalanuvchilar bir birlari bilan real vaqtda qo'llay, muloqat qila oladilar. Annotatsiyalar, Word, Excelda saqlanishi mumkin. Obektlarga rasmlar, videolar, xujjatlar kiritish mumkin. Ko'p xar xil simlar xam kerak emas. Xonadan xonaga oson ko'chiriladi. Xonaning istalgan burchagiga zarurat tug'ilganda oborib kuyish mumkin. Doskaga bir vaqtning o'zida ikkita o'quvchi chiqib bemalol barmoqlari orqali rasmlar chiza oladi. Ingliz tilida xar xil o'yinlar o'ynay oladi. Ilgari proektor orqali dars o'tganda proektor uchun kompyuter, mishka, kalonka, monitor kerak bo'lgan bo'lsa xozir bittagina interaktiv doska xammasini o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, darsni sifatli darajada o'tishda xizmat kiladi. Doska ranglarni tiniq qilib ko'rsatib, tovush sistemasi xam yaxshi yaratilgan bo'lib, o'quvchilarga tovushni anik va ravon yetkazib beradi. Interaktiv doskani ishlatganda vaqt tejaladi. Ilgari oddiy doska bilan ishlaganimizda bo'r, suv kerak bo'lgan bo'lsa, endi bunga xojat yuq. O'qituvchi tez mavzuga kirishib, tushuntirib, o'quvchilar bilan amaliy mashg'ulotlar qilib, dars oxirida o'quvchilar qanchalik darajada o'zlashtira olganligini tekshira oladi, baxollay oladi. O'quvchi darsda ingliz tilining to'rtta aspekti bo'yicha bilimini mustaxkamlaydi. Yani bu gapirish, eshitish,



yezish va o'kish. O'quvchilar tez muloqatga kira oladilar. Bir dars mobaynida bir nechta metodlar orkali darsni o'zlashtiradilar.

O'quvchi uyda tayerlab kelgan slaydi orqali doskani ishlatgan xolda prezintatsiya qilishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchi ortiqcha endi qogoz ko'tarib yurmaydi. O'quvchilar bir biri bilan birgalikda ishlashga, muloqat muzokara qilishga o'rganadi. Doska orqali ingliz tilida ko'rib tushunish vazifalari tez amalga oshadi. Duskada bemalol xar xil figuralarni, geometrik shakllarni, xaritanini chizib, xam tayer qo'yib ishlatish mumkin. Interaktiv doska proektor bilan kompyuterni o'z ichiga qamrab olgan uskuna bulib, uni ko'p qulayliklari bor. Interaktiv duskada multimedia orqali xam dars utish mumkin. O'qituvchi kerakli bo'ladigan malumotlarni qog'ozga chiqarmay turib doska orkali tushintira oladi. O'qituvchi ilgari sumkasida kitob, daftar, lug'at, kog'oz, jurnalni, fayl papkani og'ir kilib ko'tarib yurishiga to'g'ri kelardi, endi bu doska ishini yengillashtirdi. Endi kichkina fleshka bilan doska o'qituvchi uchun xizmat qiladi. Interaktiv duskadan foydalanib o'qitishda o'qituvchining roli, maxorati katta axamiyatga ega bo'ladi. O'qituvchi qanchalik tajribali o'z kasbini ustasi bo'lsa, dars shunchalik mazmunli va qizikarli bo'ladi.

Interaktiv doskani dunega kelishi bilan tanishsak. Devid Martin degan inson, Nyu Yorkda 1986 yilda shu doskani yaratishni taklifini beradi 1987 esa bu doska yaratiladi. Xozirda doska yaratilganiga 35 yil buldi. Va avlodlarga talim olishida katta xizmat ko'rsatayapti.

Ingliz tili darsida qanday ishlata olamiz.

- Ingliz tili darsida bu doska kitob vazifasini bajaradi. Yani darslikni ekranda ochib, turli mashklar qilish mumkin.
- Audeo vazifasida qo'shik qo'yib berish mumkin. Qo'shiq subtiteri bilan ko'yilib o'quvchi qo'shik aytib xam o'qishni, xam to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi.
- Darsni mavzusiga oid video ko'rsatish mumkin.
- Ingliz tilida testlarni xilma xil turini bajaradi. Ekrandan to'g'ridan to'g'ri birgalikda javobini izlaydi.
- Ingliz tilida grammatika mavzularini jonli muloqat orkali ingliz tili o'qituvchilarini darslari bilan tanishadi.
- Darsda doska orqali xilma xil mavzuga oid krassvordlar ishlaydi.
- Topishmoqlar topadi.
- Duskaga o'quvchini chiqarib turli xil o'yinlar o'ynaydi.
- Gap tuzish vazifasida o'quvchi barmog'i bilan so'zlarni to'g'ri joylaydi.
- Ingliz tili fonetikasi bo'yicha turli xil topshiriqlar qiladi.
- Berilgan savollarga javob beradi.



- Mashqda berilgan soʻzlarni toʻgʻri matnga joylash vazifasini bajaradi.
- Dialogni eshitib turib, ekrandagi mashqa toʻgʻri soʻzni qoʻyishni bajaradi.
- Ekrandagi soʻzlarni ot, sifat, felga ajratadigan mashqlar qiladi.
- Soʻzlarni oʻqib, oʻng tarafdin manosini qidirib topadi.
- Rasmlarni koʻrib, ingliz tilida gaplar tuzada.
- Soʻzlarda tushib qolgan xarflarni toʻgʻri qoʻyib gap tuzadi
- Oʻquvchi oʻrtogʻi bilan berilgan savollarga baxs, muzokara orkali suxbat olib boradi.
- Matni oʻqib, sifatlarni ajratadi.
- Prezintatsiya qilish orqali.
- Mavzuga oid multimedia koʻrsatish yuli bilan ishlatish mumkin.

## **XULOSA**

Interaktiv metodlar bilan ishlaganda, interaktiv doskaning ahamiyati katta boʻlib, bu xar bir oʻqituvchiga osonlik va qulayliklar beradi. Toʻgʻridan toʻgʻri chet eldagi malakali oʻqituvchilar bilan oʻquvchi jonli mulokat, fikr almashishda, masofaviy talimda katta ahamiyatga egadir. Zamon jadallik bilan rivojlanaetgan vaktida yeshlardan koʻp va xar tamonlama bilimli boʻlishni talab qiladi. Kelajagimiz avlodlari yangi texnologiyalardan xabardor va foydalana bilishlari kerak.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 10 декабрдаги «Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-1875-сон қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2909-сон қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентябрдаги «Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5198-сон фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 25 январдаги «Умумий ўрта, ўрта махсус ва касб-хунар таълими тизимини тубдан такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5313-сон фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 8 майдаги 124-сон қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси узлуксиз таълим тизимининг Давлат таълим стандарти. «Чет тиллар бўйича таълимнинг



барча босқичлари битирувчиларининг тайёргарлик даражасига қўйиладиган талаблар».

6. Европа Кенгашининг «Чет тилини эгаллаш умумевропа компетенциялари: ўрганиш, ўқитиш ва баҳолаш» тўғрисидаги умумэтироф этилган халқаро меъёрлари (CEFR – Common European Framework of Reference).

7. Умирзаков Т.Б., Умирзакова Ш.Ф., Умирзаков Қ.Т. Инглиз тили грамматикаси (академик лицей ва касб-хунар коллежлари ўқувчилари учун ўқув қўлланма). – Андижон: 2017.

8. Умирзаков Қ.Т. Инглиз тили грамматикаси (умумтаълим мактаблар X-XI синф ўқувчилари учун ўқув қўлланма). - Андижон, 2018.

9. Umirzaqov T.B., Umirzaqov Q.T. Linguistic and linguo-cultural competence. An academic manual for the 1st and 2nd year students of the English language and literature. - Andijan, 2016.

10. Umirzaqov T.B., Umirzaqov Q.T. An Introductory – corrective course of the English language. An academic manual for the 1st year students of the English language and literature. - Andijan, 2016.

